

ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 1 **2025**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 1 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»  
ТОМ 3, НОМЕР 1

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»  
VOLUME 3, ISSUE 1



TOHKENT-2025

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-1>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Galiyeva Margarita Rafaellovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Samandarova Lola Sultanovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Goncharov Yuriy Mixaylovich**

Tarix fanlari doktori, professor  
Altay davlat universiteti Rossiya

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent  
Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),  
dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Urganch davlat universiteti

**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch pedagogika instituti

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Grodno davlat universiteti Belorusiya

## **IQTISODIYOT FANLARI**

### **Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

### **Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## **PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Slepko Yuriy Nikolayevich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

### **Xazova Svetlana Abduraxmanovna**

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma  
davlat universiteti Belarusiya

### **Kalandarova Madina Baxadirovna**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## **TIBBIYOT FANLARI**

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sul-tonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Nazarova Maloxat Berdiboyevna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

## **ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**

### **Sultanov Samandar Maxmud o'g'li**

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

<b>1. Аблаева Надира Кадамжановна, Зулунова Комила Комилжоновна</b> РОЛЬ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В РАЗВИТИИ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ.....	8
<b>2. Джуманиязова Интизор Давлатназар кизи</b> О НАЗНАЧЕНИИ ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ КОРПУСОВ.....	15
<b>3. Omanboyeva Aziza Doniyor qizi</b> ZUHD TA'LIMOTI VA ZOHIDLIK MAKTABLARI.....	20
<b>4. Yusupova Sohiba Islombek qizi</b> O'ZBEK VA INGLIZ XALQLARI BOLALAR FOLKLORIDA ALLITERATSIYA HODISASINING QO'LLANILISHI.....	24
<b>5. Matkarimova Gulira'no Abdullayevna</b> ABU ALI IBN SINONING "TIB QONUNLARI" ASARIDA FITONIMLARNING TADQIQ QILINISHI.....	29
<b>6. Аллаярова Рахат Рустамовна</b> К ВОПРОСУ О ПЕРЕВОДЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА НА РУССКИЙ И УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫКИ.....	34
<b>7. Kalandarov Aybek Ruzimbayevich</b> O'ZBEK KLASSIK NASRIY ASARLARNI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDA SINTAKTIK MASALALAR.....	39
<b>8. Якубов Музаффар Камилджанович</b> ДВЕ КУЛЬТУРЫ — ОДНА ЛИЧНОСТЬ: АМИР ТИМУР В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ.....	43
<b>9. Kutlimuratov Umarjon Shakirovich</b> TILSHUNOSLIKDA IZHONLOVCHI VALENTLIGINI O'RGANISHNING AYRIM MASALALARI.....	47
<b>10. Matchanov Muzaffar Ruzimbaevich</b> MODERN PERSPECTIVES ON COORDINATED ELEMENTS IN ENGLISH.....	51
<b>11. Файзуллоева Зилола Зафаровна</b> ФОРМЫ ВЫРАЖЕНИЯ ИРОНИИ И СПОСОБЫ ЕЁ ПЕРЕВОДА С АНГЛИЙСКОГО НА РУССКИЙ (НА ПРИМЕРЕ НОВЕЛЛЫ О. ГЕНРИ «ФАРАОН И ХОРАЛ»).....	55
<b>12. Qahramonov Aliboy Yolgoshevich</b> ABDULLA QODIRIY: MURAKKAB TAQDIRLI ADIB.....	62
<b>13. Шамсутдинова Галия Шамилевна</b> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, СВЯЗАННЫЕ С АРХИТЕКТУРНЫМИ ПАМЯТНИКАМИ ХОРЕЗМА.....	68

**14. Raimova Nilufar Abdullayevna, Bazarova Nazokat Davronbekovna**  
JONLANTIRISHLARNING BADIY-ESTETIK VAZIFASI (KOMIL AVAZNING “SOZANDA”  
ROMANI MISOLIDA).....72

**15. Jumanyazova Muhabbat Xusinovna, Annamuratova Shahnoza Shonazar qizi**  
PARALINGVISTIK VOSITALAR VA ULARNING IJTIMOY TARMOQLARDAGI  
IFODASI.....76

**16. Saparova Mohira Fayzullayevna**  
LEKSIKOGRAFIYANING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....80

**17. Tolibova Maftuna Zokir qizi**  
FITRAT IJODINING ZAMONAVIY ADABIYOT VA JAMIYATGA TA’SIRI.....85

## IQTISODIYOT

**1. Турдиева Якитжан Хайитбаевна**  
ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИНАНСОВОЙ  
ПОДДЕРЖКИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....88

**2. Qabulov Baxrom Quzibayevich**  
AUDITORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..91

## PEDAGOGIKA

**1. Qalandarova Iroda Hamdam qizi**  
DIDACTIC ASPECTS OF DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL  
STUDENTS: AN EXAMPLE OF READING LITERACY.....98

**2. Ashirova Anorgul Ismoilovna**  
DIDAKTIK TIZIMDA BOSHQARISH TAMOYILLARI AHAMIYATI.....105

**3. Xujaniyozova Oygul Rajabovna, Matkarimova A’loxon**  
MAKTAB O’QUVCHILARIDA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING  
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI.....110

**4. Sultonova Mashhura Rustamboyevna, Saidova Farog’at Otabek qizi**  
BOLAGA NISBATAN QADRIYATLI MUNOSABAT OTA-ONALIK MUVAFFAQIYATINI  
TA’MINLAYDIGAN OMIL SIFATIDA.....114

**5. Xudayberganov Otabek Erkinovich, Atajanov Adilbek Yuldashevich**  
OLIY TA’LIMDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT FANIDAN MUSTAQIL TA’LIM  
TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....119

**6. Рамазанова Роза Абиловна**  
РОЛЬ И МЕСТО РОДНОГО ЯЗЫКА ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК  
ИНОСТРАННОГО.....126

## PSIXOLOGIYA

**1. Ismoilova Asilpashsha Rojabovna**  
PSIXOLOGIYADA TAFAKKUR MUAMMOSINI O’RGANILGANLIK DARAJASI.....132

**2. Odamova O'g'iljon Kenjayevna**  
SHAXSNI O'Z-O'ZINI KAMOL TOPTIRISH XUSUSIYATI.....137

**3. Карпинский Константин Викторович**  
СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЦЕННОСТНОГО ОТНОШЕНИЯ  
К ДЕТЯМ В БЕЛОРУССКОЙ ПОПУЛЯЦИОННОЙ ВЫБОРКЕ.....141

## TARIX

**1. Salayev Umrbek Kadambayevich**  
JANUBIY OROLBO'YI NEOLIT VA ENEOLIT DAVRI MANZILGOHLARINING  
ARXEOLOGIK JIHATIDAN O'RGANILISHI.....150

**2. Каримов Умрбек Давронбекович**  
НЕМЕЦКИЕ МЕННОНИТЫ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ.....154

**3. Юлдашов Юлдаш**  
ВАЖНОСТЬ ВОПЛОЩЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ.....159

**4. Ismoilov Shohruxmirzo Zakirjon o'g'li**  
X-XI ASRLARDA XORAZMDA HUNARMANDCHILIK, CHORVACHILIK VA  
DENQONCHILIK AHVOLI.....162

**5. Alisher Matyakubov**  
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORAZM VILOYATI: HUDUDIY  
RIVOJLANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....167

**6. Matyakubov Xamdani Xamidjanovich**  
OROLBO'YI SAKLARINING KELIB CHIQISHI MASALASI VA UNING AHAMIYATI.....171

**7. Xamdani Yulduz Ravshanbek qizi**  
IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI TIKLANISH YILLARIDA XORAZM VILOYATI  
ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATINING BA'ZI MASALALARI.....176

**8. Насиба Хаётова Закировна**  
ВАРАХША ШАХАР МАДАНИЯТИ: ТАРИХИЙ РИВОЖЛАНИШ ВА МЕЪМОРИЙ  
ХУСУСИЯТЛАР.....180

**9. Eshchanov Hurmat Matnazarovich**  
SHARQIY OROLBO'YI TEKISLIGIDA TEMIR DAVRI TURAR-JOYLARI MUDOFAA  
INSHOOTLARIDA ARXEOLOGIK IZLANISHLAR SAHIFASI.....186


**Xudayberganov Otabek Erkinovich-**  
Ma'mun universiteti "Umumkasbiy fanlar"

kafedrası professorı p.f.b.f.d. (PhD)  
xudayberganovotabek1985@gmail.com

**Atajanov Adilbek Yuldashevich-**  
Ma'mun universiteti "Umumkasbiy fanlar"

kafedrası dotsenti  
adilbekatajanov57@gmail.com

## OLIV TA'LIMDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT FANIDAN MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14956151>

### ANNOTATSIYA

Maqolada talabalarning mustaqil ishining mohiyati, asosiy maqsadi va vazifasi, o'quv jarayoni sifatini yaxshilash uchun uning zarurligi, mustaqil ishning turlari ko'rsatilgan va ta'lim berishning innovatsion uslublarini yaratish bilan birgalikda, mustaqil ta'lim olishning ham mavzuviy, ham uslubiy yondashuviga bo'lgan bugungi kun talabini ham ochishga harakat qilinadi.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, pedagog maslahatchi, motivatsiya, ekspert, tyutor va moderator, auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ta'lim, kazu, tatqiqot natijasi, iste'molchi, mezonlar.

---

**Худайберганоv Отабек Эркинович-**  
Профессор кафедры общепрофессиональных  
дисциплин университета Маъмун,  
кандидат физико-математических наук (PhD)

**Атаджанов Адильбек Юлдашевич-**  
Доцент кафедры общепрофессиональных  
дисциплин университета Маъмун

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ ПО ДИСЦИПЛИНЕ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

### АННОТАЦИЯ

В статье излагается сущность, основная цель и задача самостоятельной работы учащихся, ее необходимость в повышении качества образовательного процесса, указываются виды самостоятельной работы, а вместе с созданием инновационных стилей обучения делается попытка раскрыть и сегодняшнюю востребованность как тематического, так и методического подходов к самостоятельному обучению.

**Ключевые слова:** независимое обучение, педагог-консультант, мотивация, эксперт, наставник и модератор, независимое обучение вне аудитории, казус, результат исследования, потребитель, критерии.

**Khudayberganov Otabek Erkinovich-**  
Professor of the Department of General Professional  
Disciplines at Mamun University,  
PhD in Physical and Mathematical Sciences  
**Atadjanov Adilbek Yuldashevich-**  
Associate Professor of the Department of General  
Professional Disciplines at Mamun University

## IMPROVING INDEPENDENT LEARNING TASKS IN THE DISCIPLINE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN HIGHER EDUCATION

### ANNOTATION

The article outlines the essence, main purpose and task of independent work of students, its need to improve the quality of the educational process, the types of independent work and, in combination with the creation of innovative methods of education, is aimed at opening up both the current demand for a thematic and methodological approach to Independent Education.

**Keywords:** Independent Education, pedagogical consultant, motivation, expert, tyutor and moderator, Independent Education performed outside the audience, kazus, result of research, consumer, criteria.

### KIRISH VA DOLZARBLIGI

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish dasturi konsepsiyasida yuqori malakali mutaxassislarni kelajakdagi kasbiy faoliyatlarining asosiy turlariga nisbatan tayyorlash sifatini oshirish – ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.

Ushbu vazifani amalga oshirish, jismoniy tarbiya mutaxassislarini oliy ta'lim muassasalarida tayyorlash tizimida nazariy va uslubiy - texnologik ta'minlashning aniq yo'llarini izlash hamda o'quv jarayonini takomillashtirish zaruriyatini belgilaydi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishi, ularda jismoniy tarbiya va sport kasbiy faoliyatlarining real sharoitlarida amaliyotga yo'naltirilgan vazifalarni unumli hal etishga tayyorgarlikni hosil qiladi. Talaba va pedagog mustaqil ta'lim ularning manfaati uchun olib borilishini tushinishi kerak. Talaba bajarayotgan mustaqil ish pedagogi uchun emas, balki o'zi uchun, uning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlashining asosiy omili ekanligini tushinishi kerak. Talaba olayotgan bilim natijasiga o'zi mas'ulligini anglashi zarur.

Pedagog esa mustaqil ta'lim faqatgina talaba uchun emas, balki o'zi uchun ham kerak ekanligi, o'zini ishini osonlashtirish, mustaqil fikr yurita oladigan talabalar bilan muloqotda bo'lib, o'z bilimini boyitish va kelajda xizmat pog'onalarida o'sishini ta'minlashini anglashi lozim. Shu bilan bir qatorda, pedagogning o'quv jarayonida talabalar bilan hamkorligi, ularning mustaqil ta'limga ishonchini shakllantirishi, o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanayotganini ko'rsata olishi, ma'ruzalarni a'naviy, ya'ni faqatgina ma'lumot berish bilan chegaralanmasdan, balki muammoli interaktiv usulda olib borishi kutilayotgan ijobiy natijalarga olib keladi.

### METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Oliy ta'limda jismoniy tarbiya va sport fanidan mustaqil ta'lim topshiriqlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot tizimli va keng qamrovli yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotda mustaqil ta'limning hozirgi holatini tahlil qilish va uni yanada samaraliroq tashkil etish strategiyalarini ishlab chiqish uchun ham sifat, ham miqdoriy usullar qo'llanilgan.

Oliy ta'limda jismoniy madaniyat va sport fanini o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati katta. Mustaqil ish turlari orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, balki amaliy

ko'nikmalarni ham rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish, o'quv adabiyotlari bilan ishlash, chizmalar va sxemalarni o'qish va tuzish kabi topshiriqlar talabalarning mavzuni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

Ma'ruza tayyorlash va video roliklar ishlash kabi vazifalar talabalarning kreativlik va kommunikatsiya qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Masofali ta'lim texnologiyalaridan foydalanish esa zamonaviy ta'lim metodlarini joriy etish imkonini beradi. Audio kitoblar va boshqa interfaol resurslar orqali talabalar bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

Nazorat ishlariga tayyorlanish va uy vazifalarini bajarish jarayonida talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Yakuniy referatlarni o'qituvchilar ishtirokida himoya qilish esa talabalarning bilim darajasini baholash va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim vazifani bajaradi. Mustaqil ta'lim mavzusi talabalar mustaqil o'rganadigan ma'ruza va seminar mashg'uloti mavzularidan iborat bo'ladi. Jumladan: Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari, fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy- tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar, yagona pedagogik jarayon va uning mohiyati, didaktika (ta'lim nazariyasi), ta'lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shakl, metod va vositalari, mustaqil ta'lim talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga mavzularni tushunishga qobiliyatini maksimal darajada rivojlanishiga, umumiy dunyoqarashlini kengaytirishga yordam berish.

Mustaqil ta'limni olib borish shakllari:

Konspekt qilish – mustaqil ishlashning aniq shaklidir. Konspektlashtirishi jiddiy jarayon bo'lib, u talabaning mantiqiy qobiliyatini o'stiradi, fikrini aniq va qisqa bayon etishga o'rgatadi.

Referat tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Referat yozish shaklidagi mustaqil ishlar talabadan ham, o'qituvchidan ham katta vaqt talab qiladi. Shuning uchun talabaga referat yozdirish natijasida nimaga erishiladi? fanni o'zlashtirishda u qanday yordam beradi? mustaqil ish soatlari yetarli? kabi savollarga ijobiy javoblar mavjud bo'lgandagina uni qabul qilish mumkin. Agarda, o'quv dasturida keltirilgan mavzularni bir qismi auditoriya mashg'ulotlari davomida, qolganlari mustaqil tarzda o'zlashtiriladigan bo'lsa qo'shimcha referat yozdirishga ehtiyoj qolmasligi mumkin.

#### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Tajribalarga ko'ra referat hajmi 15-20 sahifadan iborat qilib belgilanadi. Agarda talaba bir sahifa matn yozish uchun adabiyotdan 5 sahifani o'qib tahlil qilishi, ularni tizimga solishi mumkinligini hisobga oladigan bo'linsa referatni to'la tayyorlash uchun 10-20 soatgacha vaqt sarflashi ko'rinadi. Bu esa fanga ajratilgan mustaqil ishni katta qismiga teng bo'ladi.

Mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rib kelish shaklidagi mustaqil ishlar mashg'ulot turiga bog'liq bo'lib, talabadan ko'p vaqt talab qilmasligi mumkin. Bu birinchi navbatda fanni uslubiy ta'minlanganligiga, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va texnik vositalardan foydalanilishiga bog'liq.

Ma'ruza mashg'ulotlarida o'qituvchi auditoriyada dars rejasini, muhim qonun va qonuniyatlarni, mavzuni asosiy mazmunini matn asosida tushintirish bilan bir qatorda talabalarni konspekt yozib borishlariga asoslangan tarzda dars o'tganda talabalardan ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rib kelishiga ehtiyoj bo'lmaydi. Muammoli ma'ruza yoki boshqa texnologiya qo'llanilsa talaba ma'ruza matnini yozib, dastlabki tushunchalarni o'zlashtirib, mustaqil fikrlay olish darajasida tayyorgarlik ko'rib kelishi kerak. Biroq, ishchi dasturdagi barcha ma'ruzalarni ham talaba avvaldan

o‘qib, tayyorgarlik ko‘rib kelishini talab qilish mumkin emas. Chunki ma‘ruzalarda beriladigan bilimlarni katta qismi yangi tushuncha va nazariy ma‘lumotlardan iborat bo‘ladi. Tushinmasdan, tahlil qila olish darajasida dastlabki bilimi bo‘lmagan holda ma‘ruzani ko‘r-ko‘rona ko‘chirib kelish esa samara bermaydi. Demak, ma‘ruza mavzularini ayrimlariga avvaldan tayyorgarlik ko‘rilishi mumkin.

Amaliy mashg‘ulotlar ko‘pincha fanga oid misol va masalalar yechishga, ma‘lumotlarni, qonun va qonuniyatlarni, voqea va hodisalarni o‘rganishga qaratiladi. Bunday mashg‘ulotlarda o‘rganilishi lozim bo‘lgan “obyekt” yoki hal etiladigan masala to‘g‘risida talabaga nazariy bilimlar ma‘ruza mashg‘ulotida beriladi. Shuning uchun amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishda shakllar, jadvallar, chizmalar, eskizlar, grafiklarni belgilangan ko‘rinishda tayyorlab kelishi, mashg‘ulot davomida esa ularni to‘ldirishi samarali usul hisoblanadi. Agrada o‘quvchilarga mashg‘ulot davomida yuqoridagi grafik yoki jadvallarni tarqatma materiallar shaklida tarqatib berish yo‘lga qo‘yilsa tayyorgarlik jarayoni qisqaradi.

Seminar mashg‘ulotlari talabadan alohida tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Bunda tasdiqlangan rejaga muvofiq konspekt-seminar yozish, ijodiy seminarlar uchun materiallar tayyorlash talabadan ko‘p vaqt talab qiladi. Vaqtni tejash uchun talabaga yetarli uslubiy yordam ko‘rsatish o‘qituvchining asosiy vazifalari jumlasiga kiradi. Uslubiy yordam birinchi navbatda zarur adabiyotlarni aniq ko‘rsatish, ularni sahifalarini belgilab berish, adabiyotdagi matnni tahlil qilish usullarini va tartibini ko‘rsatishdan iborat bo‘lishi kerak.

Amaliy xarakterdagi mashg‘ulotlar rejasiga ko‘ra topshiriqlarni bir qismini berilgan na‘muna yoki uslubga ko‘ra talaba auditoriyadan tashqarida bajarish tajribasi keng qo‘llaniladi. Bu toifa topshiriqlar uyga vazifa shaklida beriladi. Bunday ishlar jumlasiga misol va masalalar yechish, seminar yozish, hisobot tayyorlash, hisob-grafika ishlari bajarish, dasturlar tayyorlash, matnni o‘qib qisqacha xulosalar tayyorlash, kompleks mashq majmualarini tayyorlash kabi topshiriqlar kiradi.

Ko‘rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o‘zlashtirish uchun yordam beradigan ko‘rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, videoyozuvlar, va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o‘qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma‘lum ko‘rsatmalar, yo‘l-yo‘riqlar beriladi. Ko‘rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo‘yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin. Ushbu turdagi topshiriqlar ijodiy xarakterdagi, pedagogik faoliyat bilan bog‘liq va videoyozuvlar, ularni o‘rganishga yo‘naltirilgan fanlarni o‘qitishda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Talabalar ko‘rgazmali materiallardan foydalanish bo‘yicha yozma ravishda yoki amaliy tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

Mavzu bo‘yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.

Talabaga muayyan mavzu bo‘yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo‘lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo‘ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o‘qituvchi tomonidan talabaga testga qo‘yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko‘zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo‘yicha yo‘l-yo‘riq beriladi. Konsultatsiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo‘yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to‘ldirish taklif etilishi mumkin).

Bunday vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan mustaqil ishlarni bajarish asosan pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar uchun, kasbiy ta‘lim yo‘nalishlarida taxsil olayotgan talabalar uchun nafaqat fanni o‘rganish, shu bilan bir qatorda pedagogik faoliyatida zarur bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Test, savol va topshiriqlar majmuasi o‘qituvchilar ishtirokida himoya qilinadi.

Bir mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha nostandart, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, videoroliklar na‘munalar yaratish vazifasi topshirilishi mumkin.

Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Talabani qiziqishi va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy xarakterdagi topshiriqlar berish, o'qituvchi bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.

O'quv rejalarida ko'rsatilgan ayrim fanlardan kurs ishlari yoki kurs loyihalari bajarish ko'zda tutilgan. Ularning soni butun o'qish davomida 5-7 ta bo'lishi mumkin. Odatda kurs ishi yoki kurs loyihasi bir qator o'zaro bog'liq va bir vaqtda o'ziga xos tarzda hal etiladigan masalalar komplekslarini hal etish tartibini o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Shundan kelib chiqib kurs ishi va loyihalari fan (fanlar) bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, ularni aniq bir masalani hal etishda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan deb aytish mumkin.

Mustaqil ishlarni bajarishda imkoni boricha topshiriqlarni variantlar shaklida tuzish, fanni o'qitish maqsadi va uni ixtisoslik bilan bog'lanadigan mazmunda tuzish to'g'ri bo'ladi. Bunda bitta mavzuni bir nechta talabaga berish, bir xil mazmundagi natijalarni talab qilish tavsiya etilmaydi.

Mustaqil ish topshiriqlari samarali, talab darajasida bajarilishi uchun ikki omil, topshiriqni to'g'ri tuzilishi va uslubiy ta'minlanganligiga bog'liq.

Topshiriqlar birinchi navbatda aniq maqsadga yo'naltirilgan, sodda va ravon tilda ifodalangan, talabani aqliy va jismoniy hamda vaqt budjetiga mos, hisobot shakli va mazmuni aniq ko'rsatilgan, ishni baholash mezoni, bajarish va baholash muddatlari aniq belgilangan bo'lishi kerak.

Topshiriqni shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar uslubiy ko'rsatmalar bilan to'la ta'minlangandagina mustaqil ishlar samarali yakunlanadi. Bunda mustaqil ish uchun uslubiy ko'rsatma topshiriqni bajarish tartibi bilan bir qatorda zarur materiallar va ma'lumotlarni, yoki ularni manbalarini aniq aks ettirishi lozim. Uslubiy ko'rsatmalar mustaqil ish shakliga mos ravishda turlicha mazmunga, tarkibiy qismlarga bo'linadi.

Amaldagi o'quv adabiyotlarining shakllari va turlari ko'p bo'lib, ular muayyan ta'lim turi (yo'nalishi yoki mutaxassisligi) o'quv rejasida qayd etilgan fanlar bo'yicha tegishli o'quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o'zlashtirish uslublari va dinamikasi yoritilgan manba bo'lib, ikki xil shaklda tayyorlanadi:

Mavzularni mustaqil o'zlashtirish talabani ushbu fan mohiyatiga birinchi marta chuqur kirib borayotganligi sababli murakkab vazifalar jumlasiga kiritiladi. Shunday ekan mavzuni yaxshi o'zlashtirish uchun talabani to'g'ri yo'naltirish muhimdir. Ushbu maqsadda tuziladigan uslubiy ko'rsatmada birinchi navbatda quyidagilarni yoritish lozim:

- mavzuni to'liq nomi;
- muhim tayanch so'zlar va atamalar;
- o'zlashtiriladigan mavzuni fanda tutgan o'rni;
- mavzuni mohiyatini ochib beruvchi tushunchalar yoki tushintirish qismi;
- mavzuni maqsadga yo'naltiruvchi tavsiyalar;
- o'quv va ilmiy adabiyotlar ro'yxati;
- internet saytlari;
- uslubiy ko'rsatma va qo'llanmalar;
- hisobot shakli, mazmuni va hajmi;
- ishni baholash mezoni;
- bajarish va baholash muddatlari;
- nazorat uchun savollar.

Auditoriyada o'qitiladigan mavzularni o'zlashtirishda mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rib kelish lozim bo'lganda topshiriq va uni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar amaliy xarakterdagi mashg'ulotlar uchun tuzilgan uslubiy ko'rsatmalar bilan uyg'unlashib ketadi. Shuning uchun bunday topshiriqni o'qituvchilar auditoriya mashg'uloti yakunida yoki auditoriyadan tashqari, maslahat berish davrida talabalarga yetkazishi mumkin. Shunga qaramay tavsiya etiladigan uslubiy ko'rsatmalar yozma shaklda ham tayyorlanishi kerak.

Bunday uslubiy ko'rsatmada mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun talaba qanday ma'lumotlarni, nazariy tushunchalarni o'qib o'rganishi, ularni qanday adabiyotdan olishi aniq

belgilab qo'yiladi. Shu bilan birga talaba e'tiborini qaratishi lozim bo'lgan formula, qonun, teorema, tushunchalar, usullar, vositalar bilan bir qatorda jadval, shakl va garfiklarni xomaki ko'rinishi chizib tayyorlash tartibi keltiriladi.

Talabalar mustaqil ishlarini shakllari ko'p, ularni mazmuni fanning hususiyatiga va mazmuniga, ta'lim bosqichiga bog'liq bo'lganligi uchun barcha tavsiyalarni umumlashtirish yoki bitta qo'llanmada yoritish imkoniyati cheklangan. Shuning uchun uslubiy ko'rsatma va qo'llanmalarni davriy ravishda to'ldirib va yangilab borish maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda talabalar mustaqil ishini tashkil qilish samaradorligini oshirish uchun mustaqil ishlar topshiriqlari va ularni bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar majmuasini ishlab chiqib o'quv semestri boshida talabalarga etkazish yaxshi samara beradi. Shunday majmuaning na'munaviy tuzilmasi ilovada keltirilgan.

### **Jismoniy madaniyat va sport fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari va ularni tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar (I-Semestr)**

<b>/r</b>	<b>Mustaqil ta'lim mavzulari</b>	<b>Mustaqil ta'lim shakllari</b>
	Yengil atletika va uning turlari	Referat tayyorlash
	Qisqa masofalarga yugurish	Videorolik tayyorlash
	O'rta masofalarga yugurish texnikasi.	Konspekt tayyorlash
	Yugurub kelib uzunlikka sakrash	Prezentatsiya tayyorlash
	Sport o'yinlari basketbol o'yin qoidalari.	Tezis tayyorlash
	Sport o'yinlari voleybol o'yin qoidalari.	Video dars tayyorlash
	Sport o'yinlari qo'l to'pi o'yin qoidalari.	Videorolik tayyorlash
	Sport o'yinlari futbol o'yin qoidalari va xakamlik.	Prezentatsiya tayyorlash
	Sport o'yinlari futbol o'yin qoidalari.	Slaydlar tayyorlash
0	Badminton o'yin qoidalari.	Tarqatma material tayyorlash
1	Stol tennis o'yin qoidalari.	Amaliy o'rganish
2	Harakatli o'yinlar (barcha jismoniy sifatlarni rivojlantirishga doir)	Audio zapis
3	Gimnastika va uning turlari	Amaliy o'rganish
4	Saf masqlari va umumrivojlantiruvchi masqlar.	Audio zapis
5	Ertalabki badantarbiya mashqlari va 16 sanoqqa kompleks mashqlarni tuzish.	Videorolik tayyorlash
6	Umumrivojlantiruvchi mashqlar.	Referat yozish va jadvallar tuzish
7	Kallanetika, pilates kabi zamonaviy sog'lomlashtirish turlari bo'yicha mashqlar.	Slaydlar tayyorlash
8	Shaxmat o'yin qoidalari.	Slaydlar tayyorlash

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jismoniy madaniyat va sport fanini o‘qitishda talabalar mustaqil ishlashini tashkil qilish, talabalarni ilmiy izlanishlar olib borishda, mustaqil fikrlashga, dunyoqarashi keng yetuk mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratadi.

## Iqtiboslar/ References/Сноски

---

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdagi «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnoma to‘g‘risida»gi 286-sonli buyrug‘i.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 24-yanvar, PF—5924-son.

3. Аванесов, В. С. Форма тестовых заданий: учебное пособие для учителей школ, лицеев, преподавателей вузов и колледжей. 2-е изд., перераб. и расширенное / В. С. Аванесов. М., 2005

4. Xusainov R. Kasb-hunar kollejlariida mustaqil ta’limni tashkil etishning ahamiyati. «Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyatini takomillashtirishda oliy ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalar». Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman ma’ruzalar to‘plami. – T.: TDTU, 2015.

5. Xudayberganov O.E. Voleybol vositalari va muammoli o‘qitish usullari yordamida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy ko‘nikmasini bosqichma-bosqich shakllantirish. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnal № 11 2023 yil 306 -311 b.

6. Xudayberganov O.E. Muratov. S.J. Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi fanidan mustaqil ta’limni tashkil etish. O‘quv - uslubiy tavsiyanoma “Lesson press” Toshkent 2023 yil 5 - 10 b.

tomonidan qoldirilgan turar-joylar mudofaa inshootlarida olib borgan arxeologik izlanishlar natijalari taxlil qilindi va yangi g'oyalar ilgari surildi.

Natijalar quyidagicha izohlandi:

- Sharqiy Orolbo'yi hududi tekisligini odamzot tomonidan neolit davrida o'zlashtirilishi, axoli zichligi oshganligi sabab olib borgan migratsion jarayonlar, yangi-yangi xo'jalik-madaniy xo'jaliklarni tarkib topishi oydinlashtirildi.

- Neolit va bronza davri aholisini jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-munosabatlarni olib borishi jarayonida Quyi Amudaryo xududida Oqchadaryo havzasi axolisi bilan o'zaro aloqalari natijalari qayd qilindi.

- Yarim o'troq va chorvador qabilalarning binokorlik bilimi asosida bunyod qilingan istexkomli turar-joylar to'g'risida tarixiy ma'lumotlar ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilindi.

#### **XULOSA**

- Arxeologik yodgorliklarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari e'tiborga olinib, Sharqiy Sirdaryo xududi tosh davrida ovchilar tomonidan o'zlashtirilmagan, neolit davri so'nggi bosqichida o'zlashtirilganligi to'g'risida xulosaga kelindi.

- Neolit, eneolit va bronza davrida axoli turar-joylar yerto'la chaylalar bo'lgan, o'zlashtiruvchi xo'jalik yo'nalishi jamiyat iqtisodiyotini namoyon qilgan.

- Temir davriga kelganda (mil.avv. X-Vasrlar), turar-joylar qurilishida paxsa va xom g'ishtlar qo'llanishi, ular atrofi mudofaa devor, unda mudofaa elementlari, tashqi devor atrofida handaq o'tganligi masalalari o'rganildi.

#### **Iqtiboslar / References / Сноски**

1. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма-М.:Наука, 1968. Вып-8-С.125-126.
2. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья //ТрХАЭЭ-М.:Наука, 1981-Вып XIII-С.90-93.
3. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья-М.:Наука, 1977.Т.-Х-С 27-28.
4. Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция АН СССР в 1946 г //Известия Академии Наук-М.:Наука, 1947.Т.4. Вып-2-С. 177-182.
5. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М-Л, Наука, 1962-С. 154-рис 89.
6. Толстов С.П. "Древний Хорезм". М. МГУ. 1948. С. 59-69.
7. Сагдуллаев А.С. "Оседлые области юга Средней Азии в эпоху раннего железа". (Генезис культуры и социально-экономическая динамика). Автореф. Дисс. Доктор. Ист.наук.-М.:МГУ, 1989-38 с
8. Пилишко В.Н. "Раскопки в Дейнауском районе Чарджоуской области". //АО 1974,- М: Наука, 1975-С.528.
9. Kabirov J, Sadullayev A. "O'rta Osiyo arxeologiyasi". Т. O'qituvchi. 1990.
10. Baratov P. "O'zbekistonning tabiiy geografiyasi". Toshkent. O'qituvchi, 1996-В. 154-162.

## МАДАНИЯТЛАР КЎПРИГИ ВА АКАДЕМИК ҲАМКОРЛИК НАМУНАСИ: МАЪМУН УНИВЕРСИТЕТИ ФИЛОЛОГИЯ ФАКУЛТЕТИ ВА КИНЖО ГАКУИН УНИВЕРСИТЕТИ



Бугунги кунда Маъмун университети республикаимиз етакчи олий даргохларидан биридир. Университет мамлакатимиздаги олий ўқув юртлари орасида халқаро ҳамкорлик бўйича етакчи ўринни эгалламоқда. Таълим соҳасидаги халқаро ҳамкорлик университет жамоаси фаолиятининг ажралмас қисмидир. Маъмун университети жаҳоннинг бир қатор йирик давлатлари жумладан, Словения, Италия, Белгия, Швеция, Испания, Япония, Малайзия, Туркия, Қозоғистон, Қирғизистон, Беларус, Россия, Озарбайжон, Жанубий Корея каби давлатларнинг олий ўқув юртлари билан ўзаро ҳамкорлик алоқаларини ўрнатди ва ушбу олий ўқув юртларида университет бакалаврият талабалари, таянч докторантлари, профессор-ўқитувчиларини ўқиш, малака ошириш, тажриба алмашиш, илмий тадқиқот ишларини амалга ошириш, шунингдек, халқаро илмий конференциялар, семинарлар, форумларда иштирок этишларини режалаштирди. Нуфузли хорижий олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари ҳозирги кунда талабаларга таълим бериб келмоқдалар.

Маъмун университети “Филология” факултети 2022 йил 5 сентябрда ташкил қилинди. Ҳозирги кунда филология факультетида 1000дан зиёд талаба таҳсил олмақда. Улар орасида халқаро ва миллий сертификатга эга талабалар ҳам бор, улар асосан университет тасисчиси гранти асосида таҳсил оладилар. Бу ҳам университет раҳбариятининг иқтидорли ва билимли талабаларга кўрсатаётган эътибор ва эъзоздир!

Филология факултети доимо тил, адабиёт ва маданиятни ўрганиш маданиятлараро мулоқотни йўлга қўйишда асосий ўрин тутадиган макон бўлиб келган ва шундай бўлиб қолади. Глобаллашув даврида хорижий университетлар билан ҳамкорлик академик фаолиятнинг ажралмас қисмига айланиб, ўзаро тажриба алмашиш, илмий тадқиқотларни чуқурлаштириш ва халқлар ўртасида ўзаро тушунишни ривожлантириш имконини бермоқда.



Филология соҳасидаги халқаро ҳамкорлик алоҳида аҳамиятга эга, чунки улар тилни маданий ва тарихий шароитда ўрганиш учун янги имкониятлар очади. Сўнги бир неча йил ичида факултетимиз турли мамлакатлар, жумладан, Япония, АҚШ, Жанубий Корея ва бошқа университетлар билан алоқаларни фаол ривожлантирмоқда. Бу ҳамкорликлар таълим жараёнини бойитади, илмий тадқиқот чегараларини кенгайтиради ҳамда талабалар ва профессор-ўқитувчиларнинг алмашинув дастурлари, конференциялар ва кўшма илмий лойиҳаларда иштирок этиши учун имконият яратади.

Япониянинг Кинжо Гакуин университети ва Маъмун университети билан тегишли меморандумлар билан мустаҳкамланган ҳамкорлик ана шундай ҳамкорликнинг ёрқин мисолларидан бирidir. Бу ташаббуслар халқаро алоқаларни мустаҳкамлаш ва жаҳон илмий ҳамжамиятига интеграцияни рағбатлантиришга содиқлигимизни кўрсатади.

Кинжо Гакуин университети Япониянинг Аичи префектураси, Нагоя шаҳрида жойлашган хусусий аёллар университетидир. Унинг кампуси Морияма-ку худудида жойлашган бўлиб, талабаларга турли академик ва маданий ресурслардан фойдаланиш имкониятини беради.

Мазкур даргоҳ 1889 йилда ташкил этилган ва 1949 йилда университет мақомини олган. "Кинжо" ("Олтин қалъа") номи асосий кўрғоннинг тепасидаги иккита олтин шачиҳоко билан машҳур бўлган Нагоя қалъасининг тарихий номига ишора қилади.

Университет гуманитар ва ижтимоий фанлардан тортиб табиий фанларгача бўлган кенг кўламли фанларни қамраб олувчи 14 та бакалаврият факултети ва мутахассисликларини ўз ичига олади. Магистратура ва докторантура дастурларини таклиф қилувчи Гуманитар фанлар ва инсон экологияси олий мактаби ҳам мавжуд.

Университет кутубхонаси ўқув муҳитининг муҳим қисми бўлиб, уй вазифаси, тадқиқот ва ўқиш учун имконият яратади. Университет нафақат маҳаллий, балки халқаро талабаларни ҳам қабул қилади, маданий алмашинув учун ўзига хос муҳит яратади, турли миллат вакиллари билан учрашади ва халқаро алоқаларни ўрнатади.

Маъмун университети Филология факултети ва Кинжо Гакуин университети Гуманитар фанлар факултети ўртасида ўзаро англашув меморандуми имзоланиши орқали мустаҳкам алоқалар ўрнатилди. Мазкур ҳужжат академик алмашинувни ривожлантириш, қўшма таълим ва илмий лойиҳаларни амалга ошириш йўлида муҳим қадам бўлди.



Меморандум ҳамкорликнинг қуйидаги асосий йўналишларини ўз ичига олади:

Касбий ҳамкорликни чуқурлаштириш ва тажриба алмашиш учун ўқитувчилар ва тадқиқотчилар алмашинуви;

ёш мутахассисларнинг дунёқарашини кенгайтириш ва икки давлат таълим тизимининг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш имконини берувчи бакалаврият талабалари алмашинуви;

маданий ва илмий меросни чуқурроқ тушунишга қўмаклашиш учун академик маълумотлар ва материалларни алмашиш;

илмий иш учун янги истиқболларни очадиган қўшма тадқиқот лойиҳалари ва симпозиумлар ташкил этиш;

муайян эҳтиёж ва имкониятларга қараб факултетлар томонидан келишилган бошқа ҳамкорлик шакллари.

Шартнома ўзаро ва ҳар бир университетнинг автономиясини ҳурмат қилиш тамойилларига асосланади. Режалаштирилган барча тадбирлар иккала факультет вакиллари томонидан олдиндан келишиб олинади ва томонларнинг илмий ва молиявий имкониятлари ҳисобга олинади. Меморандум беш йил муддатга амал қилади, шу каби муддатлар учун автоматик равишда янгиланади.


Ҳамкорлик доирасида илгари сурилган энг истиқболли ғоялардан бири ҳар икки университет талабалари учун ҳар йили қишки ва ёзги икки ҳафталик оромгоҳларни ташкил этиш таклифи бўлди. Ушбу тадбирлар қуйидагиларга қаратилган:

Икки давлат маданияти, ҳаёти ва тарихи билан танишиш;

маданиятлараро алоқаларни мустаҳкамлаш;

амалий мулоқот орқали иштирокчиларнинг тил малакаларини ошириш.

Бундай оромгоҳлар талабалар учун нафақат билимларини чуқурлаштириш, балки бошқа давлат вакиллари билан дўстона алоқаларни ўрнатиш имкониятини берувчи ўзига хос майдонга айланади.



Мамун университети ва Кинжо Гакуин университети ўртасидаги ҳамкорлик замонавий таълим соҳасида халқаро ҳамкорлик муҳимлигини кўрсатади. Бу нафақат иштирокчиларнинг касбий маҳоратини оширишга, балки Ўзбекистон ва Япония халқлари ўртасидаги дўстлик ва ўзаро ҳамжихатликни мустаҳкамлашга хизмат қилади. Ҳамкорликнинг янада кенгайтиши ҳар икки томон учун янада кенг имкониятлар яратиши кутилмоқда.

Бу тadbирларни амалга оширишда бевосита иштироқ этган ва асосий сабабчи бўлган ҳақиқий ва ёрқин инсонни эслатишимиз керак! Маъмур университети ва Япониянинг Кинжо Гакуин университети ўртасида ҳамкорлик алоқаларини ўрнатишда яхши дипломат ва тadbиркор Ибрагимов Бунёдбек Абдушарипович муҳим рол ўйнади, унинг фаолияти Ўзбекистон ва Япония ўртасида муҳим кўприк вазифасини бажариб келмоқда. Ўзбекистон Республикасининг Нагойядаги фахрий консули Хироюки Ито жанобларига қимматли вақтларини аямасдан ва беминнат хиссаларини кўшганлари учун алоҳида миннатдорчилик билдирамыз.

Бунёдбек Абдушарипович 1985-йилда Урганч шаҳрида туғилган, юридик маълумотга эга, 2007-йилда Тошкент давлат юридик институтини, 2009-йилда Нагоя университетини тамомлаган, ҳуқуқшунослик магистри даражасини олган. Унинг фаолияти халқаро ҳамкорлик, ўзбек маданиятини тарғиб қилиш ва икки давлат ўртасидаги иқтисодий алоқаларни ривожлантириш борасидаги фаол ишлар билан ажралиб туради.

2017 йилдан Б.Ибрагимов Нагоя-Ўзбекистон дўстлик жамияти (ФАНУЗ) ҳаммуассиси ва ижрочи директори, Нагоя шаҳрида жойлашган Глобал Силк Роад Инс. компанияси муассиси ва ижрочи директори. Унинг ташаббуслари билан қатор муҳим шартномалар, жумладан, Туризм давлат қўмитаси ҳузуридаги Миллий жамоат маркази билан ҳамкорлик тўғрисидаги меморандум ҳамда Тошкент ва Нагоя шаҳарлари ўртасида маданият ва туризм соҳасида ҳамкорлик тўғрисидаги шартнома имзоланган.

Ўзбекистоннинг сайёҳлик салоҳиятини оммалаштириш, миллий маҳсулотларни Япония бозорига олиб чиқиш, япон сармоясини жалб этиш борасидаги саъй-ҳаракатлари икки томонлама муносабатлар ривожига катта таъсир кўрсатган. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Япониядаги ватандошлар билан учрашувини ташкил этиш, Нагоя мэрининг Ўзбекистонга ташрифи, маданий-иқтисодий алмашинувни ривожлантиришга хизмат қилувчи лойиҳаларни амалга ошириш унинг ютуқларидандир.

Халқаро алоқаларни мустаҳкамлашга қўшган ҳиссаси учун Бунёдбек Абдушарипович “Шухрат” медали (2020) ва “Фаол тадбиркор” кўкрак нишони (2024) билан тақдирланган. Унинг фаолияти нафақат Ўзбекистонни халқаро майдонда танитибгина қолмай, балки таълим, фан ва маданият соҳасидаги ҳамкорлик, жумладан, Кинжо Гакуин университети билан ҳамкорлик қилиш учун ноёб имкониятлар яратди.

Филология факултетининг Япониянинг Кинжо Гакуин университети каби хорижий университетлар билан ҳамкорлиги - халқаро ҳамкорлик илм-фан, таълим ва маданият ривожига қандай ҳисса қўшишининг ёрқин намунасидир. Бу каби ташаббуслар талабалар ва профессор-ўқитувчилар учун янги уфқларни очиб, тажриба алмашиш, тадқиқотларни кенгайтириш ва маданиятлараро тушунишни чуқурлаштиришга ёрдам беради.

Бу жараёнда Бунёдбек Абдушарипович Иброҳимов каби фаол меҳнати ва фидойилиги билан мамлакатлар ўртасидаги дўстлик кўприklarини мустаҳкамлаган инсонларнинг саъй-ҳаракатлари алоҳида аҳамият касб этади. Унинг ҳиссаси узоқ муддатли ҳамкорликни ривожлантириш йўлидаги муҳим қадам бўлиб, натижада нафақат қўшма лойиҳалар, балки таълим ва маданият алмашинувининг янги истиқболларини шакллантиришга эришилди.

Ишончимиз комилки, Кинжо Гакуин ва бошқа хорижий университетлар билан ҳамкорлик янада ривожланиб, янги самаралар олиб, факултетимизнинг халқаро нуфузини мустаҳкамлайди. Бу ташаббуслар таълим ва илм-фан халқларни бирлаштириб, умумий мақсадларга эришиш ва глобал билимлар ҳамжамиятини яратишда қудратли воситага айланаётганидан далолат беради.

**Якубов Музаффар Камилджанович-  
Маъмур университети Филология факультети декани**



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 1 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

ТОМ 3, НОМЕР 1

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000